

**ANDIJON VILOYATIDA YO'LOVCHI TASHUVCHI AVTOTRANSPORT KORXONALARI  
FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПАССАЖИРСКИХ  
АВТОТРАНСПОРТНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ**

**IMPROVING THE EFFICIENCY OF THE ACTIVITIES OF PASSENGER TRANSPORT  
ENTERPRISES IN THE ANDIJAN REGION**

*Andijon mashinasozlik instituti o'qituvchisi*  
**Maribjonov Muxammadali Muzaffar o'g'li**

**Annotatsiya:** *Andijon viloyatida yo'lovchi tashuvchi ATKlarning ish samaradorligini oshirishda harakat tarkibining texnik holatini saqlash va optimallashtirish, harakatlanuvchi tarkibning samarali foydalanish texnologiyasini takomillashtirish juda muhim hisoblanishi va bu ishlarni tashkil etishda ATKning TXK va T, shuningdek nozimlik bo'limlarini ish faoliyatini sifatli tashkil etish, umumiy korxonaning texnik bazasini modernizatsiya qilish va takomillashtirish bo'yicha aniq takliflar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *avtotransport, harakatlanuvchi tarkib, nozim, kompetensiya, malaka, yo'lovchi tashish, yuk tashish, texnik parametr, texnika bazasi, texnik xizmat ko'rsatish va*

Dunyo miqyosida yirik shaharlarda aholiga transport xizmati ko'rsatish sifati ko'rsatkichlari, jumladan, yo'lovchilarni yo'lda ortiqcha ushlanib qolishlarsiz manzillariga o'z vaqtida, komfort sharoitda yetib borish masalalari, mavjud muammolarning zamonaviy yechimi hamda xizmat sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlarda, jumladan, AQSh, Angliya, Germaniya, Fransiya, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda shahar avtobus yo'nalishlarida xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashning yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yo'lovchi tashish jarayonida asosiy subyekt sifatida avtotransport tarmoq korxonalari ishtirok etadi. Respublikamizda avtotransport tarmoq korxonalarini rivojlantirish, ko'rsatilayotgan xizmat sifatini jahon andozalari darajasiga olib chiqish va ish samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Xususan, Yo'lovchilar yo'llarda uzoq vaqt qolib ketishlari natijasida mamlakatimiz iqtisodiyotiga katta moddiy zarar yetkazilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 yanvardagi "Aholiga transport xizmati ko'rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo'lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (PQ-2724-sonli) Qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-mart, PQ-4230-sonli "Yuk va yo'lovchi tashish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan transport xizmati ko'rsatishni tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, mulkchilikning barcha shakllaridagi tashuvchilar uchun raqobat muhitini

hamda qulay shart-sharoitlarni yaratish va Respublikaning transporttranzit salohiyatini oshirish borasida ko'plab maqsad va vazifalar belgilangan[1-3].

Qaror asosida "Yo'lovchi va yuk tashishni yanada rivojlantirish" bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi va shu asosida sohani rivojlantirish bo'yicha samarali ishlar olib borilmoqda. Respublikamiz iqtisodiy o'sish sur'atiga erishgan sharoitda shaharlar aholisini transport bilan ta'minlash muammosi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoat markazlarida yo'lovchilar transportining tegishli rivojlanishsiz tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni ko'paytirish mumkin emas. Bundan tashqari, iqtisodiy rivojlanishning barqarorlashuvi mehnatga yaroqli aholi farovonligining oshishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida yo'lovchilarning transport sifatiga bo'lgan talablarini belgilaydi[4-7]. Shu o'rinda 2019-yilda Respublikamiz miqyosida turli transportda yuk va yo'lovchi tashish aylanmasi bo'yicha statistika qo'mitasi taqdim etgan ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, umumiy tashilgan yo'lovchilar soni 5951,5 mln yo'lovchini tashkil etib, shundan, 5852,8 yo'lovchi yoki 98%, tashilgan yuklarning umumiy hajmi 1243,0 tonnani tashkil etib, shundan, 1102,2 mln tonnasi yoki 88% aynan avtomobil transporti hissasiga to'g'ri kelishi avtomobil transporti mamlakatimiz iqtisodiyotining naqadar muhim o'rinni egallashini belgilab beradi. Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi[8-12].

2021- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 67,7 % ga yetdi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi. Yo'lovchi tashish bilan shug'ullanuvchi avtotransport korxonalarini (ATK) o'z xizmatlarining samarali, sifatli va qulay tashkil etishi juda muhim hisoblanadi. Bu asosan, ATKning asosiy bo'limlari faoliyatining puxta va ishonchli tashkil etilishi bilan ta'minlanadi[13-17].

Yo'lovchi tashish ATKlarining ish samaradorligini oshirish va ish jarayonlarini optimallashtirish borasida respublikamiz va xorijiy adabiyotlarda ko'plab tadqiqotlar, izlanishlar olib borilgan va adabiyotlar yaratilgan. Xususan, M. Z. Musajonov, M.A. Abduvaliyev, Q. M. Siddiqnazarov, M.A. Ikramov va boshqalar tomonidan, avtokorxonalarda yuk va yo'lovchilarni o'z vaqtida tashish uchun mavjud avtomobillarning texnik tayyorligini yuqori darajada, eng kam mablag' sarflagan va ekologik talablarni bajargan holda ta'minlab turish zarurligi, buning uchun ularga muntazam texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari (TXK va T) ni olib borish, ularni saqlash joylari, zaxira qism va avtoekspluatatsiyaga oid materiallar bilan ta'minlash va boshqa xizmatlar majmuini amalga oshirish lozimligi ta'kidlangan[18-24].

Avtotransport korxonalarini samaradorligi uning texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash bo'limini qay darajada tashkil etilishiga va aynan bu ishlarida muhandislik faoliyatini takomillashtirishning turli nazariy va amaliy yo'llari orqali erishilishiga bog'liqligini xorijiy olimlardan G.V.Kramarenko, N.Ya.Govorushchenko, B.S.Klayner,

E.S.Kuznetsova, N.P.Pankratova, I. Primakov, V. Chepurniy va boshqalarning asarlarida takidlab o'tilgan. Ular muhandis-texnik ishchilar faoliyatini takomillashtirish masalalarini ilmiy tadqiqot institutlari va boshqa ishlab chiqarish tashkilotlari ishtirokida ko'rib chiqildi. Yo'lovchi tashuvchi ATKlar mijozlarga sifatli va qulay xizmatni tashkil etish uchun avvalo samarali o'zining ish faoliyatini takomillashtirishi, moddiy texnika bazasini tubdan qayta jihozlashi, harakatlanuvchi tarkibni ko'paytirishi, uning tarkibini yangilashi va texnik holatini doimiy yaxshilab borishini talab etadi. Barcha yuk va yo'lovchi tashuvchi ATKlarning ish samaradorligini oshirishda ikkita asosiy strategik yo'nalishni ta'kidlab o'tish lozim[25-30]:

- harakat tarkibining texnik parametrlari samaradorligini oshirish va optimallashtirish;
- ATKlarda harakatlanuvchi tarkibdan samarali foydalanish texnologiyasini takomillashtirish.

Harakat tarkibining texnik parametrlarini oshirish va optimallashtirishda, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, texnik nazorat va diagnostikalash shu bilan birga bu ishlarni amalga oshiruvchining kasbiy kompetensiyaga egaligi juda muhim hisoblanadi[31-37]. Har qanday ATKning ishlab chiqarish-texnika bazasida harakatlanuvchi tarkibga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash (TXK va T), saqlash uchun mo'ljallangan bo'limlardan iborat bo'ladi. Ularning vazifasi avtomobillarning doimiy holatda texnik sozligini ta'minlash, texnik parametrlarini saqlash va ekspluatatsiya davomida nosozligini bartaraf etishdan iborat bo'lib turli diagnostikalash-sozlash texnologik jihozlari hamda ishchi postlardan iboratdir. Bu talab bo'yicha belgilanib, barcha yuk va yo'lovchi tashuvchi ATKlar mana shunday jihozlanadi. ATKlarning TXK va T bo'limlarida harakatlanuvchi tarkibning texnik

parametrlarini samaradorligini oshirish va optimallashtirishda quydagilar ta'minlanishi zarur:

- avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini nazorat qilish va boshqarish bo'yicha kasbiy kompetensiya ega malakali mutaxassisni jalb qilish va xodimlarning malakasini doimiy oshirishni tashkil etish;

- avtomobillarning ekspluatatsiya davomida texnik nosozliklar va ularning oldini olish, bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- TXK va T bo'limidagi ustaxona va postlarni zamonaviy diagnostikalash sozlash jihozlari bilan ta'minlash;

- avtomobillarga TXK ishlarini turlari bo'yicha tizimli va kompleks tarzda amalga oshirish;

- avtomobillarni saqlash joylarida, ularning texnik parametrlarini yo'qotmasligini ta'minlaydigan sharoitni yartish[38-43].

ATKlarda harakatlanuvchi tarkibdan samarali foydalanish texnologiyasini takomillashtirishda nozimlik bo'limining o'rne juda muhim hisoblanadi. Harakatlanuvchi tarkibdagi avtomobillar yo'nalishga chiqishi vaqti, yo'nalishdagi

harakat intervallarini to'g'ri tashkil etish, texnik tayyorgarlik koeffitsientini oshirish, yo'nalishda avtomobil harakatini boshqarish, harakatdagi avtomobilni joriy ta'mirlashni samarali tashkil etilganligi va shu kabi ishlarning samarali tashkil etilganligi nozimlik bo'limi

nozimlarini kasbiy kompetensiyasi, malakasi bilan belgilanadi. Yo'lovchilarga tashish bo'yicha transport xizmati ko'rsatish shunday tashkil etilishi kerakki, ularning barcha talablari maksimal darajada, eng kam xarajatlar evaziga, o'z vaqtida qondirilsin. Shahar jamoat transportida yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish va uning sifati muammolari bilan ko'plab xorijiy va mamalakatimiz olimlari shug'ullanganlar. Ularning ilmiy tadqiqot ishlari shahar jamoat transportining ishini turli yo'nalishlar bo'yicha takomillashtirish muammolariga bag'ishlangan. Yuqori sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash, yo'lovchi tashuvchi transportda eng asosiy masala hisoblanadi. "Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifati" deganda tashish jarayonlarining majmuasi, belgilangan me'yoriy talablarga muvofiq yo'lovchilarni tashishga bo'lgan talabini qondirishdan vujudga keladigan yo'lovchilarni tashish tizimi tushuniladi[44-49].

Avtotransport vositalarining samaradorligini oshirish uchun ularning texnik holatini yaxshilashga ko'proq e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlanmoqda. Bu muhim masala hisoblanadi, ini hal qilishda asosiy vazifa avtotransport korxonalarining texnik xizmatiga alohida ahamiyat berishdir. Bunda asosiy vazifa sifatida-harakat tarkibining ekspluatatsiya davrida nosozlikka uchramasligi va nosozliklarning oldini

olish, ularni bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish kerakdir. ATKlarda barcha bo'limlar faoliyatining samaradorligi shu bo'limda ishlovchi xodimlarning kasbiy mahoratiga bog'liqdir, albatta ishchi xodimlarning, texnik muhandislarning kompetentli va malakali bo'lishi ish samaradorligini oshirishda eng asosiy jihat hisoblanadi. Shu bilan birgalikda aholiga transport xizmatini ko'rsatish sifati tadqiq qilinayotganida ular quyidagi tamoyillarga asosanib shakllantirilishi kerak: yaxlitlik, emerjentlik, tashkil qilinganlik, murakkab tizimlarni izohlab bo'lmasligi (transport xizmatini ko'rsatish sifatini belgilovchi barcha ko'rsatkichlarni yakka holatda baholab bo'lmaydi) va shu sababli tizimni kvantlash, dekompozitsiyalash va boshqalar. Mavjud yo'lovchilarga transport xizmati ko'rsatish sifatini belgilovchi me'yorlarni tizimli yondashuv tamoyillariga asosanib tahlil qilinadigan bo'lsa, avval o'tkazilgan tadqiqotlarda ba'zi bir jiddiy kamchiliklar mavjudligini e'tirof etish mumkin:

-transport xizmatini ko'rsatish sifatiga ta'sir etuvchi ba'zi bir omillarning tasodifiy tabiatga ega ekanligi hisobga olinmagan;

-transport xizmatini ko'rsatish jarayonlarini tadqiq qilishda tizimli yondashuvning dekompozitsiya tamoyilidan keng foydalanilmagan[50-51]. Masalan, transport xizmati ko'rsatish sifatini tadqiq qilishda "yo'l harakatini tashkil etish" jarayonlarini alohida tizim deb qarash, uning o'zini alohida tagtizimlarga ajratib tadqiq qilinmaganligi.

#### **XULOSA**

Yo'lovchi tashuvchi ATKlarning ish samaradorligini oshirishda harakat tarkibining texnik parametrlari saqlash va optimallashtirish, avtomobillardan samarali foydalanish texnologiyasini takomillashtirish juda muhim hisoblanadi. Bu ishlarni tashkil etishda ATKning TXK va T shuningdek nozimlik bo'limlarini ish faoliyatini sifatli tashkil etish, umumiy korxonaning ishlab chiqarish texnika bazasini modernizatsiya qilish va

takomillashtirish kerak bo'ldi. ATKlarning ish faoliyatini amalga oshiruvchi texnik-muhandis va ishchi xizmatchilarning kasbiy mahorati va malakasi barcha ishlarning samaradorligini oshirib, tashish xizmatlari sifatini oshishda muhim hisoblanadi. Yo'lovchilarga transport xizmati ko'rsatish sifatini baholash bo'yicha dunyo olimlarining tadqiqotlarida barcha parametrlar hisobga olingan, lekin harakatlanuvchi tarkibning yo'nalishdagi harakatini tashkil etish masalasi yetarlicha o'rganilmagan. Transport xizmati ko'rsatish sifati o'zgaruvchi ko'rsatkichlarining tasodifiy tabiatini hisobga olgan holda, ularning me'yoriy qiymatini ta'minlash usulini ishlab chiqish lozim. shahar avtobus yo'nalishlarida yo'lovchilarga transport xizmati ko'rsatish sifatiga ta'sir etuvchilardan, sig'imdan foydalanish koeffitsienti eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ya'ni, muhim hisoblangan sifat (yo'nalishdagi avtobuslar soni, harakat muntazamligi, yo'lovchining transportda bo'lish vaqti, avtobusning sig'imi va boshqalar) ko'rsatkichlar orqali sig'imdan foydalanish koeffitsientini me'yorlashtirishga va bu orqali yo'lovchilarga transport xizmati ko'rsatish sifatini oshirishga erishish mumkin. Bugungi kungacha dunyoning va yurtimizning olimlari tomonidan o'tkazilgan avtobus yo'nalishlarida yo'lovchilarga transport xizmati ko'rsatish sifatiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarning tahlillari, uni belgilovchi parametrlarni sig'imdan foydalanish koeffitsientiga bog'liqlik sxemasini ishlab chiqish imkonini berdi va o'z navbatida ko'rsatilayotgan transport xizmati sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Andijon viloyatida aholiga sifatli transport xizmatini tashkil etishda, ayniqsa yo'lovchi tashish tizimida mavjud yo'nalishlar va ularda harakatlanayotgan transport vositalari parkida avtobus va mikroavtobuslar soni oshirishga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, transport xizmati sifatini boshqarishda zamonaviy axborot kommunikatsion tizimlarni keng joriy etish, avtoboshbekatlar va oraliq bekatlarni zamonaviy jihozlar bilan jihozlanishi ham aholi uchun sifatli xizmat ko'rsatishning muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda aholiga sifatli transport xizmatini tashkil etishda rivojlangan davlatlar tajribasidan keng foydalanish, bu sohaga ilmiy innovatsion ishlanmalarni joriy etish va uni rag'batlantirish ishlarini yanada rivojlantirish muhim ro'l o'ynaydi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Икромов Нурулло Авазбекович, Гиясидинов Абдуманоб Шарохиidinovich, & Рузиматов Бахром Рахмонжон Угли (2021). МЕРЫ ПО СНИЖЕНИЮ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ АВТОПАРКА. *Universum: технические науки*, (4-1 (85)), 44-47.
2. Икромов, Н. А. (2021). Исследования физико-механических свойств радиоционно модифицированных эпоксидных композиций и покрытий на их основе. *Universum: технические науки: электрон. научн. журн*, 12, 93.
3. Икромов Нурилло Авазбекович (2015). Исследование влияния магнитного поля на физикомеханические свойства композиционных полимерных покрытий. *Вестник Курганского государственного университета*, (3 (37)), 96-99.

4. Икромов, Н. А. (2021). Исследования физико-механических свойств радиационно модифицированных эпоксидных композиций и покрытий на их основе. Главный редактор: Ахметов Сайранбек Махсutowич, д-р техн. наук; Заместитель главного редактора: Ахмеднабиев Расул Магомедович, канд. техн. наук; Члены редакционной коллегии, 59.

5. Ikromov, N. A., & Turaev, S. A. To determine the ingesting of various polymer materials of automobile cartridges. Academia-an international multidisciplinary research journal, 10.

6. Икромов, Н. А., & Жалолова, З. Х. (2022). Исследования адгезионная прочность полимерных покрытий обработанных в магнитном поле. SO 'NGI ILMIIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(4), 58-62.

7. Negmatov, S. S., Mamadoliev, K. M., Sobirov, B. B., Latipov, I. K., Ergashev, E., Rakhmanov, B. S., & Tajibaev, B. M. (2008, August). IMPROVEMENT OF PHYSICO-MECHANICAL PROPERTIES OF THERMOREACTIVE AND THERMOPLASTIC POLYMERIC COVERINGS BY PHYSICAL METHODS OF MODIFICATION. In AIP Conference Proceedings (Vol. 1042, No. 1, pp. 67-69). American Institute of Physics.

8. Икромов, Н. А., & Расулов, Д. Н. (2020). Объекты и методики исследования композиционных полимерных материалов. Современные научные исследования и инновации, (10), 1-1.

9. Ikromov Nurullo, & Rasulov Dilshod (2021). TECHNIQUE AND INSTALLATIONS FOR ELECTROMAGNETIC TREATMENT IN THE FORMATION OF COMPOSITE POLYMER COATINGS. Universum: технические науки, (7-3 (88)), 52-55.

10. Avazbekovich, I. N. (2022). Application Of Composite Materials and Metal Powders in the Technology of Restoration of Worn Parts. Texas Journal of Engineering and Technology, 9, 70-72.

11. Ikromov, N. A., Isroilov, S. S., G'iyosiddinov, A. S., Rakhmatov, S. M., & Ibrokhimova, M. M. (2020). Situation of nes balance in the city passenger transportation market when moving passengers with transfers. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(3), 188-198.

12. Тожибоев Бегижон Мамитжонович, & Икрамов Нурилло Авазбекович (2020). ИССЛЕДОВАНИЕ СВОЙСТВ РАДИАЦИОННО - ОБРАБОТАННЫХ НАПОЛНЕННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОЛИМЕРНЫХ ПОКРЫТИЙ  $\gamma$  - ЛУЧАМИ. Universum: технические науки, (12-1 (81)), 51-53.

13. Ikromov, N., Alijonov, A., Soliyev, B., Mamajonov, Y., Mahammadjonov, N., & Meliqoziyev, A. (2021). Analysis of mechanical properties of polymer bushing used in automobile industry. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(3), 560-563.

14. Avazbekovich, I. N. (2022). Investigation Of The Influence Of Technological Factors Of Magnetic Treatment Of Polymer Coatings On Their Adhesion And Physical And Mechanical Properties. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1064-1070.

<https://orcid.org/0000-0002-1774-2217>.

15. Ikromov N. A., To'raev S. A. Avtomobil patronlarining turli polimer materiallarini yutishini aniqlash //Akademiya-xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqot jurnali.

16. Негматов, С. С., Жалилов, Ш. Н., Рахманов, Ш. В., Негматова, К. С., Абед, Н. С., & Икромов, Н. А. & Махаммаджонов, ХА (2022). Исследование теплой водостойкости и прочностных свойств композиционных полимер-полимерных связующих. Universum: технические науки,(11-5 (104)), 47-53.

17. Негматов С. С. и др. Исследование антифрикционно-виброзвукопоглощающих композиционных полимерных материалов и покрытий на их основе //Universum: технические науки. – 2021. – №. 8-1 (89). – С. 11-15.

18. Avazbekovich I. N. Transport vositalarning texnik holatini baholash //World scientific research journal. – 2023. – Т. 18. – №. 1. – С. 92-97.

19. Ikromov N. A. et al. Shahar ko 'chalarida transport vositalarining harakat jadalligini o 'rganish //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 863-872.

20. Икромов Н. А., Холматов У. С., Ёғли Холматов С. У. Ҳайдовчиларнинг иш тажрибасини йўл транспорт ҳодисасига таъсирини ўрганиш //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 10. – №. 2. – С. 11-18.

21. Негматов С. С. и др. О разработке композиционных полимерных материалов для защиты и ремонта трубопроводов и оборудования нефтегазовой промышленности от коррозионно-механических повреждений. – 2022.

22. Икромов Н. Физическая модификация термопластичного полимерного композиционного материала: дис. – Белорусско-Российский университет, 2019.

23. Негматов С. С. и др. Триботехнические свойства композиционных материалов на основе термопластичного полимера и органоминеральных наполнителей при контактном взаимодействии с волокнистой массой (хлопком-сырцом) //Физика и химия обработки материалов. – 2020. – №. 5. – С. 66-74.

24. Xalilbek o'g'li X. E. ICHKI YONUV DVIKATEL DETALLARINI QURUM BOSISHINI TEKSHIRISH //World scientific research journal. – 2023. – Т. 18. – №. 1. – С. 110-115.

25. Melikuziev A. et al. IMPROVING THE PERFORMANCE OF THE FUEL INJECTION SYSTEM //Development and innovations in science. – 2022. – Т. 1. – №. 14. – С. 10-14.

26. Юсупов С., Иноятходжаев Ж., Аскарров Б. ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ТРАНСПОРТ ТИЗИМЛАРИНИ МАҲАЛЛИЙ ШАРОИТДА ҚЎЛЛАШНИНГ СИНЕРГЕТИК ХУСУСИЯТЛАРИ //Актуальные вопросы развития инновационно-информационных технологий на транспорте. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 191-195.

27. Yusupov S., Inoyatkodjaev J. ANALYSIS OF SYNERGISTIC PROPERTIES OF INTELLIGENT TRANSPORT SYSTEMS WITH ROAD INFRASTRUCTURE ELEMENTS //Central Asian Journal of STEM. – 2022. – Т. 3. – №. 2.

28. Yusupov S. SYNERGETIC PROPERTIES OF VEHICLE TO INFRASTRUCTURE IN URBAN DRIVING MODES: SYNERGETIC PROPERTIES OF VEHICLE TO INFRASTRUCTURE IN URBAN DRIVING MODES //Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent. – 2022. – Т. 12. – №. 2.

29. Turayev S. et al. The importance of modern composite materials in the development of the automotive industry //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2021. – Т. 10. – №. 3. – С. 398-401.

30. Turaev S. A., Rakhmatov S. M. O. Introduction of innovative management in the system of passenger transportation and automated system of passenger transportation in passenger transportation //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 3. – С. 34-38.

31. Ahmadjonovich T. S. Aminboyev Abdulaziz Shukhratbek ogli. Light automobile steel wheel manufacturing technology //Asian Journal of Multidimensional Research. – С. 18-23.2022.

32. Turaev S. The role of polymer materials used in the development of automobile industry //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 5. – С. 284-288.

33. Тўраев Ш. А. Автомобилларда ишлатиладиган пластик деталларига қўйиладиган талаблар ва уларнинг механик хоссаларини тадқиқ қилиш. – 2022..

34. Тўраев Ш. А. Автомобиль втулкаларининг ҳар хил полимер материалларини ейилишини аниқлаш. – 2021.

35. Ahmadjonovich T. S. et al. THE ROLE OF COMPOSITE MATERIALS USED IN AUTOMOBILE DEVELOPMENT //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 409-414.

36. Turaev S. A., Aminboyev A. S. O. Light automobile steel wheel manufacturing technology //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 3. – С. 25-30.

37. Ahmadjonovich, To'rayev Shoyadbek AVTOMOBILLARDA ISHLATILADIGAN YUQORI BOSIMLI GAZ BALLONLARIDA ISHLATILADIGAN KOMPOZITSION POLIMER MATERIALLAR TAXLILI. Ilmiy impuls, 2022/12/1 C-106-111.

38. Ahmadjonovich T. S. PROPERTIES OF COMPOSITE POLYMER MATERIALS AND COATINGS USED IN AUTOMOBILES //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – Т. 2. – №. 19. – С. 160-168.

39. Soliyev A., Shukurjon B. ZAMONAVIY TRANSPORT LOGISTIKA MARKAZ FAOLIYATINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 575-580.

40. Bakirov L. Y., Soliyev A. F. TRANSPORT VA PIYODALAR HARAKAT OQIMINING JADALLIGI VA TARKIBINING O'ZGARISHI //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 25. – №. 3. – С. 53-55.

41. Soliyev A., Raximbek X. TRANSPORT VOSITALARI KONSTRUKTIV XAVFSIZLIK TIZIMLARINI JORIY ETISHNING TASHKILY VA HUQUQIY ASOSLARI TAXLILI //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 568-574.

42. Soliyev A., Raximbek X. TRANSPORT VOSITALARI KONSTRUKTIV XAVFSIZLIK TIZIMLARINI JORIY ETISHNING TASHKILY VA HUQUQIY ASOSLARI TAXLILI //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 568-574.



43. Imomkulov K. B., Mukimova D. K. The motivation parameters of wedge-shaped disk of the machine for preparing plow by flap to sowing //Scientific-technical journal. – 2018. – Т. 1. – №. 3. – С. 145-147.

44. Igamberdiev, A. K., Muqimova, D. K., Usmanov, E. Z., & Usmanova, S. D. (2022). Influence of the thickness of the roller discs of the combined machine on the indicators of their work during the processing of plowed lands afterwards. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 954, No. 1, p. 012001). IOP Publishing.

45. Igamberdiev A. K., Muqimova D. K. DETERMINATION OF THE RATIONAL VALUES OF THE PARAMETERS OF THE DISC ROLLERS OF THE COMBINED UNIT //Irrigation and Melioration. – 2020. – Т. 2020. – №. 3. – С. 67-72.

46. Muqimova D., Nurdinov M. COMPLIANCE WITH RESPONSIBILITY AND WORK REGIMES OF DRIVERS IN LEGAL REGULATORY DOCUMENTS DUE TO ACCIDENTS IN THE TRANSPORTATION OF INTERNATIONAL GOODS BY TRUCKS //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 15-25.

47. Мукимова Д. К. ОБОСНОВАНИЕ ШИРИНЫ МЕЖДУСЛЕДИЯ ДИСКОВ КАТКОВ КОМБИНИРОВАННОЙ МАШИНЫ //European research: innovation in science, education and technology. – 2020. – С. 13-16.

48. Muqimova D. et al. LOCATION AND DEVELOPMENT OF THE MAIN NETWORKS OF WORLD TRANSPORT //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 279-284.

49. MUQIMOVA D. K. et al. Analysis of the Current State of Population Growth and Level of Vehicle Ownership //Texas Journal of Engineering and Technology. – 2022. – Т. 13. – С. 22-28.

50. Юлдашев А. Адаптив тестлов технологияси учун дастурий мажмуа //Scienceweb academic papers collection. – 2019.

51. Yuldashev A., Abdumuminova N., Xalimov J. ПОВЫШЕНИЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ СТУДЕНТА ОБЪЕКТИВНО С НАУЧНЫМИ ИССЛЕДОВАНИЯМИ //Точная наука. – 2018. – №. 26. – С. 113-115.